



TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ

(Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga e'lon joylashtirish
to'g'risida)

2022-yil 18-avgust

Toshkent sh.

«NEFT VA GAZ» jurnalini nashr etish (sahifalash) va chop qilish masalasini ko'rib chiqish va e'lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtiriladigan tanlov shartlari va hujjatlari bo'yicha e'lon matni

Tanlovga qo'yilayotgan xizmat turi:

«NEFT VA GAZ» jurnalini nashr etish (sahifalash) va chop qilish.

Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar:

Nashr etish ishlarini "Buyurtmachi" tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;

Tegishli matbaa gevohnomasi va nashriyot litsenziyasiga ega bo'lgan va ushbu sohada kamida 5 yillik tajriba hamda o'z texnik bazasiga ega bo'lisch;

G'olib chiqqan tashkilot tomonidan tahririyat tomonidan berilgan maqolalarini (maqolalar akt bilan topshiriladi) 1 (bir) kun davomida to'liq sahifalab, bir dona signal nusxani tayyorlab "Buyurtmachi"ga topshirish;

Signal nusxa tahririyat tomonidan tasdiqlangandan so'ng 2 (ikki) kun davomida chop etib tayyor jurnalni "Buyurtmachi"ga topshirish;

Tanlov ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida korruption holatlarga yo'l qo'ymaslik xususida ariza taqdim etish;

Tanlovda g'olib chiqqan tashkilot (korxona) bilan tahririyat o'rtaida rasmiylashtirilgan shartnomada ko'zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mavjudligi inobatga olinsin;

Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi. Xususan, (ariza, kafillik xati, tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot, uning moliyaviy holati haqida ma'lumot, taklif qilinayotgan xizmatning texnik tavsifiga qiyosiy jadval).

Nashr etiladigan mahsulotning umumiy tavsifi:

Muqova qismi laminatsiya (soft touch) qilingandan so'ng jurnal nomi va muqovadagi rasmlar 5D kumushrang folga bilan bo'rtma chop etilishi va alohida 5D lakanishi lozim. Jurnal 80-120 sahifa, ichki bloki 170 gr mellangan (melovannaya), muqovasi 250 gr mellangan qog'oz. Har bir yangi maqola sarlavhasi va maqoladagi rasmlar 3D bosma va alohida (viborochniy) lakli bo'lishi shart. Jurnal chop etilgandan so'ng ipli tikish mashinasida tikilib, keyin termo yelimlanadi. Jurnal chop etishga tayyor bo'lganda yuqoridagi talablar asosida kelishish uchun signal nusxa taqdim etilishi shart. Signal nusxa tahririyat tomonidan tasdiqlangandan so'ng chop etishga ruxsat beriladi.

No	Mahsulot nomi	Adadi (dona)	Hajmi	Bir dona narx (QQS bilan)
	«NEFT VA GAZ» jurnalini	2500	80-120 sahifa	60 000.0

Buyurtmachi nomi: "NEFT VA GAZ" jurnalni tahririysi.

Buyurtmachi mansabdor shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami: direktor S. Xoshimov. Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy. STIR: 202357664, 97 758-00-25

Tanlov taklifini rasmiylashtirish shakli: elektron talablar asosida.

Buyurtmani bajarish muddati: nashrning signal nusxasi tasdiqlangach **2 (ikki) kun**.

Tanlov o'tkazish manzili: Tashkent shahar, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy.

Boshlanish muddati: 18.08.2022-yil Tugallanish muddati: 25.08.2022-yil

Takliflarni topshirishning oxirgi muddati: 2022-yil 25 avgust.

Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:

Tannarx, muddat, ko'rsatiladigan xizmatlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan e'lon shartlariga muvofiq bajarish muddati.

Komissiya tomonidan xizmat ko'rsatish sifatli va o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq boshqa holatlar ham mezon sifatida onlayn orqali baholanadi;

Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlov g'olib aniqlanadi.

Tahririyat direktori

S. Xashimov

